Statistik tahlil usullari orqali xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari — yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi, xizmatlar hajmi va tarkibiy o'zgarishlari o'rganildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar tahlilida qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, mintaqalar kesimida xizmatlar sektorining rivojlanish darajasini baholashda iqtisodiy-taqqoslash, guruhlash hamda indeks usullari qo'llanildi. Bu usullar xizmatlar sohasining hududlar bo'yicha tafovutlarini aniqlash va samarali rivojlanish omillarini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash va ekspert baholash usullaridan ham foydalanildi. Ushbu usullar asosida xizmatlar sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda strategik takliflar ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot barqaror rivojlanish konsepsiyasi, raqamli iqtisodiyot tamoyillari hamda hududiy iqtisodiy integratsiya nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Natijada mintaq iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.

**Tahlil va natijalar.** Mintaqada xizmatlar sohasi moddiy mahsulot yaratmasdan, iste'molchilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat turlaridan tarkib topadi. Chunki, uning tarkibi savdo, transport, moliya, axborot texnologiyalari, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va boshqa xizmat turlari hisobiga taraqqiy qiladi. Shu bois, mintaq iqtisodiyotida mazkur sohani rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish va iqtisodiyot diversifikatsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'ladi. Bu borada mintaqada xizmatlar sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, institutsional islohotlar, investitsiya jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va hududiy ixtisoslashuv asosida xizmatlar sektori barqaror iqtisodiy o'sishni taqozo qiladi.

Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo'nalishlari turli olib borilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Xususan, tadqiqotlarga asosan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy ustuvor vazifa uni liberallashtirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hisoblanadi [1]. Ushbu jihat bevosita iqtisodiyotga o'tish sharoitiga xos bo'lib, iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasini uyg'unlikda taraqqiy qilishini taqozo qiladi. Boshqa xil tadqiqotlarning yo'nalishi esa xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uning iqtisodiy asoslariga bog'liq bo'ladi. Xususan, ushbu tadqiqot xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini taklif qilib, unda iqtisodiy mexanizmning asosiy va yordamchi elementlari o'rtasidagi bog'liqlik muammolari ko'rib chiqiladi [2].

Yana bir tadqiqotlarda xizmatlar sohasining zamonaviy rivojlanishini raqamli iqtisodiyot sohasini taraqqiy qildirish aks ettiradi. Ya'ni, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish bugungi kunda milliy iqtisodiyot oldida turgan vazifalardan biri sifatida raqamli texnologiyalar asosida sifat va samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi [3]. Ushbu tadqiqotga bog'liq holda yana bir tadqiqotda xizmatlar sohasining taraqqiyoti bevosita geoaxborot va multimedia texnologiyalari asosida kengayib boradi. Jumladan, yangi yo'nalishni shakllantirishda geoaxborot va multimedia texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi [4]. Boshqa tadqiqotlarda esa mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining tarkibi tadqiq qilinadi. Unga asosan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishining xususiyatlari, muammolari, afzalliklari va kamchiliklari hamda o'rni muhokama qilinadi [5].

Navbatdagi boshqa xil tadqiqotlarga ko'ra, xizmatlar sohalari raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligini oshirish va hududlarning obyektiv mavjud afzalliklarini oshirish hamda biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish bevosita innovatsion rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi. Chunki, xizmatlar sohasi mintaqaviy bozorlarning eng dinamik va tez rivojlanayotgan segmenti va mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligi xususiyatlarini aks ettiradi. Bu borada xizmatlar sohasining innovatsion rivojlantirishga, aholining jamoat tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan xavflarni diversifikatsiya qilishda xizmatlar sohalari aktivlari orqali rentabellikning o'sishi hududlarning muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi [6].

O'rganilgan boshqa tadqiqotning metodologik asosini esa fundamental fan va ilmiy bilimlarning maxsus usullari, zamonaviy iqtisodiy nazariyaning konseptual qoidalari hamda xizmat ko'rsatish sohasining faoliyati va rivojlanishi muammolari bilan shug'ullanuvchi xorijiy olimlarning ilmiy amaliyotlari tashkil etadi. Unga asosan, xizmat ko'rsatish sohasining asosiy tendensiyalari va g'ayritabiiy rivojlanishini shakllantirish xizmat ko'rsatish mohiyatiga asoslangan holda o'ziga xos belgilar va tasniflash xususiyatlariga ega bo'ladi [7]. Boshqa yana bir tadqiqotlar esa qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni ilmiy-nazariy tadqiq qiladi. Unga binoan, bu tadqiqotda O'zbekistonning qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda maqsadli davlat dasturlari va xalqaro tajribalarga e'tibor qaratilgan [8].

Darhaqiqat, xizmat ko'rsatish sohasidagi asosiy muammolar, ya'ni ishchi kuchi va bandlikning oshishi moliyaviy xizmatlar, tog'-kon, ijaraga berish, muhandislik va korxonalarga xizmat ko'rsatish xizmatlari, savdo, avtomobillar, uy-ro'zg'or buyumlari va maxsus kiyim-kechak buyumlarini ta'mirlash xizmatlari, mehmonxonalar va restoranlar faoliyati xizmatlari kabi turlar va ularning taraqqiyotiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu borada xizmat ko'rsatish sohasining katta eksport salohiyatiga ega bo'lishi va ularning qismlarining pasayishi va milliy iqtisodiyotdan ishlab chiqarish majburiyatlarining qisqarishigacha davom etadigan tendensiyaga ega bo'ladi. Unga asosan, eng chekka hududlarda sug'urta xizmatlari, intellektual mulk bilan bog'liq royalti va boshqa xizmatlar, biznes xizmatlari, madaniy va dam olish xizmatlari va davlat xizmatlari kabilarni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, mintaqada xizmatlar sohasini quyidagi strategik yo'nalishlar asosida keng taraqqiy qildirish maqsadga muvofiq:

- institutsional islohotlar. Bu borada mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish avvalo me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni talab qiladi. Bunda litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, soliq imtiyozlari joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini

kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, biznes yuritish shart-sharoitlari yengillashtirilgan hududlarda xizmatlar sohasi o'sish sur'ati yuqori bo'ladi.

- raqamlashtirish va innovatsiya. Chunki, zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi raqamli texnologiyalarsiz samarali rivojlana olmaydi. Raqamlashtirish orqali onlayn xizmatlar ko'lamini kengayadi, vaqt va xarajatlar tejaladi hamda shaffoflik oshadi. Masalan, Amazon va Alibaba Group elektron savdo platformalari xizmatlar bozori transformatsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu bois, mintaqalarda elektron to'lov tizimlari, onlayn bronlashtirish, raqamli marketing va CRM tizimlarini joriy etish xizmatlar samaradorligini oshiradi.

- infratuzilmani rivojlantirish. Unga ko'ra, xizmatlar sohasining rivoji zamonaviy infratuzilmasiz taraqqiy qila olmaydi. Bunda transport kommunikatsiyalari, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, logistika markazlari hamda savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari muhim o'rin tutadi. Infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lsa, xizmatlar sifati va hajmi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shuningdek, mintaqada asosiy tarmoqlar bo'yicha rivojlantirish quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:


- savdo va elektron tijorat. Bu borada savdo xizmatlari mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lib hisoblanadi. Elektron tijoratni rivojlantirish mahalliy mahsulotlarni yangi bozorlarga olib chiqish, logistika tizimini takomillashtirish va kichik biznes ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

- turizm va mehmondo'stlik. Unga binoan, turizm xizmatlari mintaqaning iqtisodiy o'sish nuqtasiga aylanishi mumkin. Buning uchun turistik infratuzilmani yaxshilash, milliy brendni shakllantirish va xizmat sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu bo'yicha World Tourism Organization ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasida bitta ish o'rnining yaratilishi esa qo'shimcha 1,5-2 nafar yangi ish o'rnini vujudga keltiradi.

- transport va logistika xizmatlari. Ya'ni, transport xizmatlari iqtisodiyotning "qon tomiri" bo'lib hisoblanadi. Mintaqada logistika markazlarini tashkil etish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi.

- moliyaviy xizmatlar. Bu bo'yicha bank, sug'urta va mikromoliya xizmatlarini kengaytirish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, investitsiya faolligini oshiradi va pul aylanmasini tezlashtiradi. Moliyaviy texnologiyalar yechimlarini joriy etish esa xizmatlar bozorini modernizatsiya qiladi.

Yuqoridagilar asosida, mintaqada iqtisodiyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini amalga oshirish tizimi taklif etildi (1-rasm).



**1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini amalga oshirish tizimi**

Ushbu 1-rasmda keltirilgan sxema xizmatlar sohasini strategik rivojlantirishning kompleks asosini ifodalaydi. Ushbu modelning tizimli tahlilini amalga oshirdik. Bu borada sxemaning markazida strategik yo'nalish xizmatlar sohasini rivojlantirishda asosiy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm xizmatlar sektorini rivojlantirish va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish kabi yo'nalish bilan uzviy bog'langan. Ya'ni, strategiya bir vaqtning o'zida tarmoq ichida sifatli o'sishni va tarmoqlararo integratsiyani ta'minlaydi.

Yuqori bloklar tahliliga keladigan bo'lsak, xizmatlar industriyasi xizmatlar sohasining institutsional va iqtisodiy asosi bo'lib hisoblanadi. Ushbu industriya xizmatlar infratuzilmasi, xizmat turlari tasnifi va innovatsion yondashuvlar bilan bog'langan. Xizmatlar turlari tasnifiga keladigan bo'lsak, ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar, moliyaviy xizmatlar va axborot xizmatlari va boshqalarga ajratishni anglatadi. Tasnif esa strategik rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Infratuzilma va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni xizmatlar infratuzilmasi asoslaydi. Bu o'z ichiga transport tarmoqlari, kommunikatsiya tizimlari, bank-moliya muassasalari va axborot texnologiyalari kabi unsurlarni qamrab oladi. Ushbu infratuzilma orqali aholi turmush farovonligini oshirishga erishiladi. Bu borada xizmatlar sohasi rivojlanishi bandlikni oshiradi, daromadlarni ko'paytiradi, hayot sifatini yaxshilaydi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ya'ni, sxema natijaviy maqsad sifatida aholi farovonligini ko'rsatadi.



Ilmiy-tadqiqotning o'rniga keladigan bo'lsak, ilmiy-tadqiqot bloki innovatsiyalar, raqamlashtirish, yangi xizmat turlarini yaratish va samaradorlikni oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar xizmatlar sektorini rivojlantirishga va xizmat turlari tasnifini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Bu holatda nuqtali chiziqlar ilmiy yondashuvning barcha jarayonlarga bilvosita ta'sirini ko'rsatadi.

5. Kompleks yondashuv sifatida quyi qismdagi unsurlar keltirilgan. Bu borada xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish bevosita tarmoqlararo integratsiyani anglatadi. Ushbu integratsiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ijtimoiy, turizm va boshqa sohalarni o'z ichiga birlashtiradi. Ya'ni, bu borada xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan bog'langan va ularni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm bo'lib hisoblanadi.

Mazkur sxemaning umumiy mantig'iga keladigan bo'lsak, bu ilmiy-tadqiqot, xizmatlar sektorini rivojlantirish, strategik boshqaruv, kompleks integratsiya, iqtisodiyot tarmoqlari rivoji va aholi farovonligi kabi zanjirni ko'rsatadi. Ushbu sxema xizmatlar sohasini tizimli, strategik, innovatsion va tarmoqlararo integratsiyalashgan asosda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu yerda eng asosiy g'oya sifatida shuni aytish lozimki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini birlashtiruvchi va aholi farovonligini ta'minlovchi drayver soha ekanligini tasdiqlaydi.

Shular bilan birgalikda, kadrlar salohiyatini oshirish borasida xizmatlar sohasida inson kapitali hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, kasbiy ta'lim dasturlarini yangilash, dual ta'lim tizimini joriy etish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Oliy ta'lim muassasalari va biznes o'rtasidagi hamkorlik qilish esa samarali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash yuzasidan mintaqaviy xizmatlar bozorining asosiy ishtirokchilari kichik biznes subyektlari bo'lib namoyon bo'ladi. Ularni qo'llab-quvvatlash orqali raqobat muhiti yaxshilanadi, xizmatlar turlari ko'payadi va bozorda innovatsiyalar joriy etiladi. Soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar bu jarayonni rag'batlantiradi.

Investitsiyalarni jalb qilish borasida esa xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarur. Investitsiya muhitini yaxshilash mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi.

Eksportbop xizmatlarni rivojlantirish yuzasidan mintaqalarda IT-outsourcing, transport-logistika, turizm va ta'lim xizmatlarini eksport qilish imkoniyati mavjud. Bu borada xizmatlar eksporti bevosita valyuta tushumini oshiradi, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi va xalqaro imidjni mustahkamlaydi.

Barqaror va inklyuziv rivojlanish yuzasidan xizmatlar sohasini rivojlantirishda ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va hududiy muvozanatni ta'minlash lozim. Unga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida xizmatlar ko'rsatish atrof-muhit muhofazasiga xizmat qiladi. Shularga muvofiq, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi (1-jadval).

## 1-jadval

**Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo'nalishlari**

| №  | Rivojlantirish yo'nalishi         | Asosiy mazmun                                                        | Kutilayotgan natija                                         |
|----|-----------------------------------|----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| 1  | Institutsional islohotlar         | Huquqiy bazani takomillashtirish va litsenziyalashni soddalashtirish | Biznes muhitini yaxshilash va investitsiya hajmini oshirish |
| 2  | Raqamlashtirish                   | Elektron xizmatlar va onlayn platformalar                            | Xizmatlar tezligi va shaffofligini oshirish                 |
| 3  | Innovatsion xizmat turlari        | IT, logistika va konsalting                                          | Qo'shimcha qiymat yaratish                                  |
| 4  | Turizmni rivojlantirish           | Infratuzilmani modernizatsiya qilish                                 | Valyuta tushumi va bandlikni oshirish                       |
| 5  | Kadrlar tayyorlash                | Malakali mutaxassislar tayyorlash                                    | Xizmat sifatini oshirish                                    |
| 6  | Investitsiya jalb qilish          | Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash                                  | Yangi ish o'rinlarini yaratish                              |
| 7  | Logistika va transport xizmatlari | Zamonaviy logistika markazlari                                       | Savdo aylanmasini kengaytirish                              |
| 8  | Moliyaviy xizmatlar rivoji        | Bank, sug'urta va mikromoliya xizmatlari                             | Tadbirkorlik faolligini oshirish                            |
| 9  | Hududiy ixtisoslashuv             | Mintaqa imkoniyatlariga mos xizmat turlari                           | Raqobatbardoshlikni kuchaytirish                            |
| 10 | Davlat-xususiy sheriklik          | Sheriklik mexanizmlarini joriy etish                                 | Infratuzilmani yaxshilash                                   |

Mazkur keltirilgan 1-jadvalga asosan, institutsional islohotlar holatini ko'rsatib chiqadigan bo'lsak, bu borada mintaqada iqtisodiyotida xizmatlar sohasini rivojlantirish avvalo huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishni amalga oshirishdan boshlanadi. Soliq imtiyozlari, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish biznes yuritishni yengillashtiradi. Bu orqali xususiy sektor faolligi oshadi, investitsiya muhiti yaxshilanadi va raqobat muhiti shakllanadi. Raqamlashtirish va elektron xizmatlar ta'siri bo'yicha, raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirishning asosiy drayveri bo'lib hisoblanadi. Elektron to'lov tizimlari, onlayn buyurtmalar va "yagona darcha" platformalari xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi. Masalan, olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, raqamli infratuzilmasi rivojlangan hududlarda xizmatlar sektori yalpi hududiy mahsulotning 50-60 % gacha qismini tashkil etadi.

Innovatsion xizmat turlarini joriy etish bo'yicha IT xizmatlari, autsorsing, logistika va konsalting kabi sohalar yuqori qo'shimcha qiymat yaratadi. Masalan, Singapur iqtisodiyotida xizmatlar ulushi 70 foizdan ortiqni tashkil etadi va bu innovatsion xizmatlar hisobiga amalga oshgan. Turizm xizmatlarini kengaytirish bo'yicha ushbu turizm sohasi mintaqaviy iqtisodiyot uchun muhim drayver bo'lib hisoblanadi. Mehmonxona, restoran, gid xizmatlari va transport infratuzilmasi rivojlanishi mahalliy aholi bandligini oshiradi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasida har 1 ta ish o'rni yana 1,5 ta qo'shimcha ish o'rni yaratadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish yuzasidan xizmatlar sohasi inson kapitaliga tayanadi. Kasb-hunar markazlari, oliy ta'lim muassasalari va qayta tayyorlash dasturlari xizmat sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Malakali kadrlar innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Investitsiya va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashda xususiy sektor faolligini oshirish orqali yangi xizmat turlari paydo bo'ladi. Davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar berish muhim ahamiyatga ega. OECD tahlillariga ko'ra, xizmatlar

sohasiga investitsiya kiritish iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,2-1,5 barobarga oshiradi. Logistika va transport xizmatlarini modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan mintaqada logistika markazlari, transport terminallari va raqamli boshqaruv tizimlari rivojlantirilishi tashqi va ichki savdoni rag'batlantiradi. Bu esa mintaqaning tranzit salohiyatini oshiradi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy xizmatlar infratuzilmasi tarkibida bank, sug'urta va mikromoliya xizmatlari tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Elektron banking va mobil to'lov tizimlari xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi. Hududiy ixtisoslashuvga ko'ra, har bir mintaqaning resurs salohiyati, geografik joylashuvi va mehnat bozori xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xizmat turlarini ixtisoslashtirish lozim. Masalan, sanoat rivojlangan hududlarda logistika va injiniring xizmatlari, turistik hududlarda esa mehmonxona va madaniy xizmatlar ustuvor bo'lishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari bo'yicha ushbu loyihalar orqali infratuzilma obyektlarini qurish va boshqarish samarali amalga oshiriladi. Bu budjet xarajatlarini qisqartiradi va xizmat sifatini oshiradi.

Umuman olganda, mintaqqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Institutsional islohotlar, raqamlashtirish, investitsiya jalb qilish, kadrlar tayyorlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish o'zaro bog'liq holda amalga oshirilganda yuqori iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Unga asosan, xizmatlar sohasi yalpi hududiy mahsulot ulushini oshiradi, aholi bandligi, daromadlar o'sishi va mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi. Bu borada Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslar, agrar salohiyat va tarixiy-madaniy merosga boy hudud sifatida xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Viloyat markazi Qarshi va turizm markazi Shahrisabz xizmatlar bozorining asosiy drayverlari bo'lib hisoblanadi. Shahrisabz shahri YUNESKO merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obidalarga ega. Madaniy turizm, ziyorat turizmi va agroturizmni rivojlantirish mehmonxona va xostellar sonini ko'paytirish, gid va ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish, milliy hunarmandchilik va suvenir bozorini rivojlantirish orqali valyuta tushumini oshirish imkonini beradi. Viloyat neft-gaz va energetika sohasi bilan ajralib turadi. Sanoat korxonalariga logistika, texnik servis, konsalting, ta'mirlash va outsorsing xizmatlarini rivojlantirish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish mumkin. Qishloq xo'jaligi rivojlangan hudud sifatida agroservis markazlari, mahsulotni saqlash va qayta ishlash hamda agrologistika xizmatlari yo'nalishlarini kuchaytirish zarur. Bu esa fermerlar daromadini oshiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi.

Axborot texnologiyalari xizmatlarini joriy etish elektron savdo, onlayn to'lov tizimlari va davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Yoshlar bandligini ta'minlashda IT-parklar va startap loyihalar muhim ahamiyatga ega. Bank, sug'urta va mikromoliya xizmatlarini kengaytirish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Qarshi shahrida zamonaviy savdo markazlari va xizmat ko'rsatish komplekslarini tashkil etish ichki bozor faolligini oshiradi.

Qashqadaryo viloyatining hududi strategik joylashuvga egaligi bilan ajralib turadi. Yuk tashish, omborxona va logistika markazlarini tashkil etish orqali mintaqaning tranzit imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish uchun turizm, sanoatga xizmat ko'rsatish, agroservis, raqamli texnologiyalar va logistika yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat berish lozim. Bu yalpi hududiy mahsulot ulushini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi, aholi daromadini ko'paytirib, iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlaydi. Kompleks va innovatsion yondashuv orqali Qashqadaryo viloyati xizmatlar sohasida yuqori sur'atlarda o'sishga erishishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shuki, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Institutsional islohotlar, raqamlashtirish, infratuzilma rivoji, kadrlar salohiyati va investitsiyalarni jalb qilish bevosita asosiy strategik yo'nalishlar bo'lib hisoblanadi. Bu bo'yicha xizmatlar sohasi iqtisodiyot diversifikatsiyasini ta'minlaydi, aholi bandligini oshiradi, investitsiya jozibadorligini kuchaytiradi va mintaqaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois, xizmatlar sohasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyati mintaqasi iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- aholi daromadlarining narxlar indeksining o'sishidan oshib ketadigan sur'atlarda sohaning barqaror o'sishini ta'minlash;
- asosiy ixtiyoriy ko'rinishdagi xizmatlar ta'minoti va mavjudligini ta'minlash;
- iqtisodiy faol aholiga o'z daromadlari uchun asosiy ehtiyojlarni qondirishni ta'minlashga imkon beradigan iqtisodiy ongni shakllantirish;
- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va anglash ehtiyojlarini rag'batlantirish uchun jamoat institutlarini shakllantirish;
- iqtisodiyotning postindustrial rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan xizmatlarning o'rtacha darajasidan o'sishini ta'minlash;
- milliy transport va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish;
- yoritish xizmatlarini rivojlantirish borasida investitsiyalar jalb qilish va qo'shimcha yoritish tizimini rivojlantirish;
- yuqori samarali va natijador bo'lgan sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish;
- iqtisodiyotning innovatsion-ilmiy rivojlanishi va farovonligini rag'batlantirish;
- intellektual kuchga bo'lgan huquqni himoya qilish fuqarolik jamiyatida "intellektual" kuch toifasini institutlashtirish.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xudayberganov D.T. Mintaqada xizmat turlaridan samarali rivojlantirish yo'nalishlari. // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари, 8(3), 2023. - 94 b. ISSN:2181-1342 (Online).
2. Мардонов Б. Пути совершенствования экономических механизмов развития сферы услуг (на примере Узбекистана). // Вопросы экономической политики, №3 (2024). - с. 5-12.
3. Ochilov A.O., Xudoyorov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo'llari. // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy-elektron jurnali, №2, 2024. - 33 b.
4. <https://cedr.uz/2024/10/04/mintaqalarning-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishini-raqamlitexnologiyalar-asosida-tahlil-qilishuslublari/>
5. Tokhirov R.S., Numonov F.N. Dependence and level of influence of the services sector on the economy of Uzbekistan. // Экономика и социум, №7(110), 2023. - p. 318.
6. Pavlova A.V., Novikova A.V., Pogulich O.V., Chudnovskiy A.D., Zakirova C.S., Kaptelinina E.A., Gafurova E.S. Matveeva E.S. (2016). Organizational and Economic Mechanism of Services Spheres Innovative Development Maintenance as a Component of Management

- of Regional Economy. // International Review of Management and Marketing, 6(2S), 288-293. Retrieved from <https://econjournals.com/index.php/irmm/article/view/2063>
7. [https://otherreferats.allbest.ru/economy/01330564\\_0.html#google\\_vignette](https://otherreferats.allbest.ru/economy/01330564_0.html#google_vignette)
  8. Erkin Y. (2025). Goals and Tasks of Developing The Service Sector in Rural Areas and Creating New Jobs in The Sector. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 38(4), 70-74. <https://doi.org/10.51699/economics.v38i4.779>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).